

2024-yilning 15-sentabridan tayanch doktoranturaga Davlat byudjeti asosida qabul boshlanishi bo'yicha e'lon

2024-yilning 15-sentabridan Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida quyidagi ixtisosliklar bo'yicha **tayanch doktoranturaga** Davlat byudjeti asosida qabul boshlanishini e'lon qilamiz:

- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar (2 ta o'rin);
- 05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish (3 ta o'rin);
- 05.08.06 – G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish (3 ta o'rin);
- 01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika (1 ta o'rin);
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (1 ta o'rin).

Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar **quyidagi hujjatlarni** taqdim etishlari lozim:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning

nusxalari;

- Pasport yoki ID nusxasi;
- Til bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Tayanch doktoranturaga talabgorlarning hujjatlari joriy yilning **15-sentabridan 15-oktabriga** qadar qabul qilinadi.